

2001-yil fevral oyidan
chiqa boshlagan

Buyuk kelajakni birga quramiz!

Ijtimoiy-siyosiy,
ma'naviy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy gazeta

2026-YIL, IYUN,
№ 11-12 (569-570)



Botir ZARIPOV,
Buxoro viloyati hokimi

Aziz yoshlar!

Buxoro viloyatida 2 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi. 1 million 52 ming nafardan ziyodi yoshlardan iborat. Buxoroning ertangi taqdiri ana shu navqiron avlodi bilan belgilanadi.

Biz har bir yoshning muvaffaqiyatini viloyatimizning yutug'i, har bir tashabbusini kelajakka qo'yilgan mustahkam qadami, deb bilamiz.

Ayniqsa, 762 ming nafardan ortiq maktab yoshidagi yosh avlod vakillari, 473 ming nafardan ortiq o'smirlar va yoshlar, 381 ming nafardan ziyod faol mehnat va izlanish davridagi yigit-qizlarning taqdiri, ta'limi va kamoli doimo e'tiborimiz markazida.

Biz sizlarning har biringizga ishonamiz va katta umid bog'laymiz.

Aziz o'g'il-qizlarim!

Qalbingizdagi orzular qanot yozsin, bilim va g'ayratingiz yuksak marralarni zabt etishga xizmat qilsin. Orzu-maqsdalaringiz ro'yobga chiqib, yutuqlaringiz tobora ko'payib borsin!



Orzularga qanot,

IQTIDORGA IMKONIYAT



Videolavhani
QR-kod orqali ko'ring.



BUXORONING
yuragi

YOSHLAR BILAN URADI

Shavkat RAHMONOV,
Buxoro viloyati
Yoshlar ishlari boshqarmasi
boshlig'i

**Buxoroning shijoatli
yoshlari!**

So'nggi yillarda yoshlarning
ilm-fan, ma'naviyat, sport va

tadbirkorlik sohasidagi faolligi
yangi bosqichga ko'tarildi.

Buning isboti sifatida "**Besh tashabbus olimpiadasi**" da minglab yoshlarning qatnashgani, "**Ibrat farzandlari**" loyihasida 210 mingdan ortiq yigit-qizlarning o'z salohiyatini namoyon etganini keltirish mumkin.

"**UstozAI**" platformasi atrofida, qariyb, 30 ming nafar yoshning birlashgani zamonaviy bilim va texnologiyalarga bo'lgan qiziqishning yaqqol namunasidir.

Yoshlarning bandligi va mustaqil hayotda o'z o'rmini topishi ham e'tiborimizda. Yuzlab yoshlar doimiy ish bilan ta'minlandi, kasb-

hunarga yo'naltirildi, o'zini o'zi band qildi va tadbirkorlik faoliyatini boshladi. Bu raqamlar ortida yangi taqdir, yangi imkoniyatlar va yangi muvaffaqiyatlar turibdi.

Orzularingizdan aslo voz kechmang. Shuni unutmangki, Buxoroning yuragi sizlar bilan yonadi. Izlaning, o'rganing, harakat qiling.

Bayramingiz muborak bo'lsin!

BUXORODA YOSHLAR SIYOSATI: STATISTIKA, TAHLIL, NATIJA



30
iyun

Yangi O'zbekiston yoshlari
YOSHLAR KUNI
mubarak bo'lsin!

1 YOSHLAR BALANSI

Xatlovdan o'tkazilgan yoshlar – 473 310 nafar
Erkaklar – 240 867, Ayollar – 232 443



- Yashil (88,3%, 418 144)
- Sariq (10,9%, 51 800)
- Qizil (1,1%, 5 180)

2 "OG'IR" TOIFADAGI YOSHLAR


Jami – 5 180 nafar

- 👛 Ishsiz – 3 366
- 🔨 Probatsiya – 264
- 🔗 Ilgari sudlangan – 316
- 🔥 Agressiv – 945
- 👤 Yot g'oyalar – 140



3 BANDLIK VA IQTISODIY QO'LLAB-QUVVATLASH

Ishsiz yoshlarni band qilish (3 366 nafar)



Kreditlar
(68,1 mlrd so'm)



Yerlar
(4 114 gektar,
15 265 yoshlar)

4 IQTIDORLI YOSHLAR VA SPORT

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash

- 🎓 "Ibrat farzandlari" – 212 007
- 📄 Sertifikat – 42 428
- 🏆 Zakovat – 45 136
- 👥 Shaxmat – 56 940
- 👤 "Ustoz AI" – 29 782
- 📖 Mutolaa – 97 523 (O'qilgan kitoblar – 414 011)
- 🎓 Imtihon xarajatlari qoplangan – 665 (1,5 mlrd so'm)



"BESH TASHABBUS OLIMPIADASI"



Ro'yxatdan o'tgan yoshlar – 965 589
(Sport, Tanlovlar, Adaptiv sport)

**YOSHLAR
YETAKCHILARI**

Mahalla yoshlar
yetakchilari – 516
(Oliy ma'lumotli, Yuqori lavozim)

**YOSHLAR
MARKAZLARI**

6 ta markaz
Buxoro shahri, Buxoro,
Vobkent, Olot, Kogon va
Shofirkon tumanlari

YAKUNIY NATIJA

Keng qamrovli islohot va tashabbuslar yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi, orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishi hamda jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisiga aylanishiga xizmat qildi.



Videolavhani
QR-kod orqali ko'ring.

YOSHLAR -
KELAJAK KAFOLATI

Robotics Startup Media

15 MING ORZU - BIR BUYUK MAQSAD

KELAJAK SHIFOKORLARI TIBBIYOT SOHASINING ERTANGI KUNI



Sadoqat SIDDIQOVA,
*Buxoro davlat Texnika
universiteti rektori.*

Aziz yoshlar, muhtaram talabalar!

Bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng katta harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan Siz talaba-yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. 4 ta fakultetdan iborat 80 dan ziyod yo'nalishlarda tahsil olayotgan 15 ming nafardan ortiq bo'lgan talaba-yoshlarsiz.

Sizlar bilimga chanqoqligingiz, tashabbuskorligingiz va yuksak maqsadlaringiz bilan mamlakatimiz kelajagini barpo etayotgan avlodsiz.

Har biringizning iqtidoringizni ro'yobga chiqarish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashingiz uchun barcha sharoitlarni yaratishda davom etamiz.

Buxoro davlat Texnika universiteti bugun nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro ta'lim maydonida ham o'z o'miga ega bo'lib bormoqda. Bunda 40 dan ziyod davlatning 200 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik bor. 10 dan ziyod xalqaro hamda davlat stipendiya dasturlari Sizlar uchun. Dunyoning qator nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan, xalqaro loyihalar, akademik almashinuv dasturlari va ilmiy tadqiqotlar ko'lami kengaymoqda. Bu esa Sizlarga global bilimlar maydoniga chiqish, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishish imkoniyatini yaratmoqda.

Qadri yoshlar! Sizlarning har bir yutug'ingiz universitetimiz va Vatanimizning yutug'idir. Ilm-fan, innovatsiya va yuksak ma'naviyat yo'lidagi intilishlaringiz so'nmasin. Barchangizga mustahkam sog'liq, ulkan zafarlar, yangi g'oyalari va ezgu orzularingiz ro'yobini tilayman.



Shuhrat TESHAYEV,
*Abu Ali ibn Sino nomidagi
Buxoro davlat Tibbiyot
instituti rektori, professor.*

Qadri yoshlar, aziz talabalar!

Sizlar bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyoti va kelajagini barpo etayotgan eng katta kuch sifatida barcha sohalarida faol ishtirok etmoqdasiz. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning markazida, aynan siz yoshlar turibsiz.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida 10 mingdan ortiq talaba tahsil olib, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashi uchun

professor-o'qituvchilar hamda xodimlar fidokorona mehnat qilmoqda.

Institutimiz talabalari ilm-fan, sport, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy sohalarida yuksak natijalarga erishib, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov hamda musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Bu yutuqlar oliygohimiz nufuzi va xalqaro reytinglardagi o'rningini mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Sizlarning bilimga intiluvchanligingiz, tashabbuskorligingiz, vatanparvarligingiz va yuksak maqsadlaringiz barchamiz uchun faxr va g'urur manbaidir. Ishonamanki, kelajakda ham o'z salohiyatingiz bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, ulkan marralarni zabt etasiz.

Yoshlar kuni munosabati bilan barcha yoshlarni, ayniqsa, tibbiyot sohasining ertangi kuni bo'lgan bo'lajak shifokorlarni samimiy tabriklayman.

Barchangizga baxt-saodat, o'qish va mehnat faoliyatingizda cheksiz muvaffaqiyatlar tilayman.

Yoshlar kuni muborak bo'lsin!



TASHABBUS, MEHNAT VA MUVAFFAQIYAT



Qadrli yoshlar!

Sizlarni Buxoro viloyati soliq xizmati organlari jamoasi va shaxsan o'z nomimdan 30-iyun — "Yoshlar kuni" bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman!

Bugun yoshlarimiz mamlakatimiz kelajagi bilan birga uning taraqqiyotini ta'minlayotgan katta kuch sifatida barcha sohalarda faol ishtirok etmoqda.

Ayni paytda, Buxoro viloyatida 126 ming nafardan ziyod yoshlar tadbirkorlik va mehnat faoliyati bilan band. Jumladan, ularning 12 mingga yaqini korxonalar rahbari, 12 ming 700 dan ziyodi yakka tartibdagi tadbirkor, 102 ming 600 nafarga yaqini o'zini o'zi band qilgan yoshlardir.

Bu raqamlar yoshlarimizning tashabbuskorligi va iqtisodiyotimiz taraqqiyotidagi o'rini ko'rsatadi.

Soliq xizmati organlarida ham 200 nafardan ziyod yosh xodimlar mas'uliyat va fidoyilik bilan mehnat qilib, yurtimizning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga munosib hissa qo'shmoqda.

Ishonchim komilki, bilimli, shijoatli va vatanparvar yoshlarimiz Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, o'z oldilariga

qo'ygan yuksak maqsadlariga erishadilar.

Har biringizga yuksak marralar, yangi g'oya va tashabbuslarni amalga oshirishda kuch-g'ayrat, qat'iyat va ilhom tilaymiz. Vatanimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan munosib hissangiz yanada salmoqli bo'lsin!

**DiIshod Yuldashev,
Buxoro viloyati soliq
boshqarmasi boshlig'i.**

"Kelajakni o'zgartirmaymiz, QURAMIZ!"



Videolavhani
QR-kod orqali ko'ring.



"Buxoro yoshlari" gazetasi" studiyasi mehmoni - Buxoro davlat Texnika universiteti 4-bosqich talabasi, 2025-yil "Mirzo Ulug'bek vorislari" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'olibi Jahongir Fazliddinov.

- Qanday startap loyihalarni amalga oshirgansiz?

- Yirik loyihalarimdan birini ekologik muammolarni hal etish maqsadida ishlab chiqqanman. Aniqroq tushuntiradigan bo'lsam, ko'plab sanoat korxonalarida ko'mir yoqilg'isidan foydalaniladi va bu jarayonda atmosferaga zararli tutun chiqadi. Shu chiqindilarni kamaytirishga mo'ljallangan maxsus filtr tizimini

ishlab chiqdim. Ushbu qurilma oddiy tuzilishga ega bo'lib, ham arzon, ham samaradorligi yuqori. U mavjud analoglardan o'zining qulayligi va tejamkorligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, yana bir loyiha - mevalarni quritish apparatini yaratdim. U quyosh panellari va energiyasi yordamida ishlaydi. Qurilma mevalarni 4-7 soat ichida quritib, ularni

qish mavsumida iste'molga yaroqliligini ta'minlaydi. Qolaversa, bunday mevalarni sotish imkonini ham beradi.

- An'anaviy biznes bilan startapning farqi qanday?

- Biznes yoki — mavjud mahsulot yoki xizmatni taklif etish va undan daromad olishga qaratilgan faoliyat. Masalan, mahsulotni xarid qilib, unga qo'shimcha qiymat qo'shgan

holda mijozga sotish mumkin. Afsuski, ko'plab yoshlar startap va biznes o'rtasidagi farqni to'liq anglab yetishmaydi.

Startap bu, avvalo, muammoni hal etishga qaratilgan innovatsion g'oyadir.

- Loyihalarni moddiy qo'llab-quvvatlash tizimi bormi?

- O'zim ham faoliyatimning dastlabki bosqichida shunday muammoga duch kelganman. Shu sababli startap loyihalarini turli tanlov va grant dasturlarida ishtirok etib, moliylashtirish imkoniyatlarini izlaganman. Tanlovlarda qo'lga kiritilgan mablag'lar loyihalarni rivojlantirishda muhim bo'lgan.

- Startapchilar investorlar bilan ishlashda qanday xatoga yo'l qo'yishlari mumkin?

- Avvalambor, insonda ishonch bo'lishi kerak. Investorlar ham birinchi navbatda startapchining o'ziga bo'lgan ishonchini kuzatadi. Agar g'oya yaxshi bo'lsa-yu, uni to'g'ri tushuntirib bera olmasa, o'z kuchini yo'qotadi.

- Startap bilan shug'ullangan yoshlar moddiy barqaror bo'la oladimi?

- Maqsad va ishonch bo'lsa, albatta, katta imkoniyatlar eshigi ochiladi...

Suhbatdosh: Husan

Bugun mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari yuzlab yigit-qizlarning orzu va maqsadlarining ro'yobga chiqishiga hissa qo'shmoqda. Ular tashabbusi bilan yangi ish o'rinlari yaratilib, yoshlar kasb-hunar, til va sport to'garaklariga jalb etildi.



Turli to'garaklar va o'quv kurslari tashkil etilib, yuzlab yoshlar o'z iqtidorini namoyon etish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga o'rgatish, imtiyozli kreditlar orqali o'z biznesini boshlashiga ko'maklashish borasidagi ishlar samara bermoqda.

Bugun ko'plab yoshlar o'z mehnati va mahorati orqali daromad topib, oilasi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, mahallalarda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida ham muhim natijalarga erishildi.

Quyidagi raqamlar va amaliy misollar ana shu sa'y-harakatlarning ifodasi. Yoshlar yetakchilarining mahallalar taraqqiyoti va yoshlar kelajagi uchun olib borayotgan fidokorona mehnatini namoyon etadi.

RAQAMLAR ortidagi

MEHNAT VA NATIJALAR

Eng muhimi, mahallalarda yoshlar uchun imkoniyatlar muhiti shakllanib, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jinoyatchilikning oldini olish va iqtidorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu jarayonda mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari davlat bilan yoshlar o'rtasidagi ishonchli ko'priikka aylandi. Ular har bir yigit-qizning qiziqishi, muammosi va maqsadini o'rganib, tizimli ishlar olib borishmoqda. Shu tariqa mahallalarda tadbirkorlikka intilayotgan yoshlar soni ortib, yangi loyihalar tatbiq etilmoqda.



Xaliljon NABIYEV,
Amir Temur MFY
yoshlar yetakchisi



Ozodbek AMINJONOV,
Bahouddin Naqshband MFY
yoshlar yetakchisi



Suhrob HODJIYEV,
Charmgaron MFY
yoshlar yetakchisi

	Kogon shahar	Kogon tuman	Vobkent tumani
YOSHLAR UMUMIY SONI	563 nafar	1 060 nafar	701 nafar
BANDLIK VA BO'SH ISH O'RINLARI	34 ta yangi ish o'rni	16 ta yangi ish o'rni	20 ta bo'sh ish o'rni
TO'GARAKLARGA JALB QILISH	50 nafardan ziyod yosh jalb qilindi	66 nafar yosh jalb qilindi	300 nafar yosh jalb qilindi
KREDITLAR VA TIL LOYIHALARI	4 nafar yoshga imtiyozli kredit ajratildi	3 nafar yosh tadbirkorga 250 mln so'm imtiyozli kredit berildi	"Ko'mak" loyihasi (Ingliz tili) va "2+6" dasturi (Nemis tili) to'garaklari
ERISHILGAN YUTUQ VA DAROMADLAR	20 nafar yosh hunari orqali daromadga chiqdi	"Ibrat farzandlari"ning "Super star" loyihasi ingliz tili sertifikatini sohibi	Mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun 2 milliard so'm imtiyozli kredit
XAVFSIZLIK VA E'TIROF	Uch yil davomida yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilmagan	Uch yil davomida yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilmagan	"Top-100" yoshlar yetakchilari safida



Videolavhani
QR-kod orqali ko'ring.

Tong hali yorishmay turib, Xavzaktepa qishlog'idagi bir hovlida hayot allaqachon uyg'ongan bo'ladi. Boshiga oddiy gulli ro'molini mahkam bog'lab olgan, bir qo'lida ketmon, ikkinchi qo'lida esa ro'zg'or tashvishlari bilan yashaydigan, "Tuniroq" mahallasi Xavzaktepa qishlog'ida istiqomat qiluvchi Farida Mardonqulova kunni mehnat bilan qarshi oladi.

BIZNES LADYga AYLANGAN DEHQON QIZ

Ba'zan issiqxona oralab yurganida yonida kichik farzandi ergashib yuradi, ba'zan esa onalik va dehqonchilik mas'uliyati bir paytda uning yelkasiga tushadi. Ammo, u hech qachon mehnatdan qochmaydi.

Bugun xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ana shunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'zining zahmati va qat'iyyati bilan muvaffaqiyatga erishayotgan ayollardan biri Farida Mardonqulovanning hayot yo'li oddiy dehqon ayolning mehnat bilan biznes olamiga kirib kelgan ibratli

qissasini eslatadi. Olti yildan buyon u 6 sotix maydondagi issiqxonasida pomidor, bodring, kartoshka kabi mahsulotlar yetishtirib kelmoqda. Yozning jazirama issig'i ham, qishning izg'irinli sovug'i ham uni ortga qaytara olmagan. U har bir niholga mehr bilan qaraydi, har bir hosil ortida esa uning peshona teri mujassam.

Ko'pchilik dam olayotgan paytda Farida issiqxonada bo'ladi. Tuproq yumshatadi, ko'chat parvarishlaydi, hosil yig'adi. Uning qo'llaridagi qadoqlar mehnatning jimgina guvohi. Ana shu zahmat evaziga u

mavsumga qarab, 30–40 million so'mgacha daromad topmoqda. Bundan tashqari, mavsum davomida 6 nafar xotin-qizni ish bilan ta'minlab, ularning oilalariga ham baraka kirishiga sabab bo'lmoqda.

Faridaning yutug'i faqat daladagi mehnat bilangina cheklanmaydi. U zamon bilan hamnafas bo'lishga intiladi. "UstozAI" platformasi orqali limonchilik sirlarini o'rganib, kelajakda limon yetishtirishni yo'lga qo'yishni maqsad qilgan. Bu esa uning izlanishdan, yangilikka intilishdan aslo to'xtamasligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, u uch farzandning mehribon onasi. Kunbo'yi tadbirkorlik ishlari bilan band bo'lsa-da, farzandlarining ta'lim-tarbiyasi va qiziqishlariga alohida e'tibor qaratadi.

— Men kun davomida tadbirkorlik ishlari bilan band bo'lsam-da, farzandlarim bilan suhbatlashaman va ular bilan shug'ullanaman. Chunki, avvalo, onalik vazifamni bajarishim va mehnatim bilan ularga o'rnak bo'lishim kerak, deb hisoblayman. Aynan, shu niyatda davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanishga harakat qilaman, — deydi Farida Mardonqulova.

U davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, yoshlar uchun ajratilgan subsidiya asosida 25 sotix maydonda bog' yaratishga ham muvaffaq bo'ldi. Bu esa uning faoliyatini yanada kengaytirishiga xizmat qilmoqda.

Boshida ro'mol, qo'lida ketmon bilan dalaga kirgan dehqon ayol bugun o'z oilasi, mahalladoshlari uchun ham ilhom manbaiga aylangan. Uning peshona teri bilan sug'orilgan har bir niholi, yetishtirgan har bir hosili ortida matonat, sabr va buyuk mehnat mujassam.

Husan Hakimov,
"BYO" muxbiri.

"YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH UCHUN TADBIRKORLIKKA KO'MAKLASHISH"

PREZIDENT QARORIGA MUVOFIQ

"YOSHLAR BIZNESI" DASTURI



31 YOSHGA
TO'LMAGANLARGA



ASOSIY QARZDAN
1 YILGACHA
IMTIYOZLI DAVR



AT "ALOQABANK"



YILGACHA
MUDDAT



FOIZ TO'LOVLARIDAN
3 OYGACHA
IMTIYOZLI DAVR



FOIZ STAVKASI:
MB ASOSIY STAVKASIDAN
4 FOIZLIK PUNKT YUQORI

100 mln so'mgacha imtiyozli mikroqarzarlar

XORIJIIY TIL VA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARNI O'RGANISH,
ZAMONAVIY KASB-HUNAR



20 mln so'mgacha

ZAMONAVIY KASBLAR: SMM,
MOBILOGRAFIYA, FRILANSERLIK,
INTERNET DO'KONLAR,
O'ZINI-O'ZI BAND QILISH



50 mln so'mgacha

KASANACHILIK,
TO'QIMACHILIK, TIKUVCHILIK, MAH-
SULOTNI IKKILAMCHI QAYTA
ISHLASH/SOTISH



50 mln so'mgacha

NOVVOYCHILIK VA
SHIRINLIKLAR TAYYORLASH
VA SOTISH



100 mln so'mgacha

Mikroqarzar: Sug'urta polisi ta'minoti yoki 3-shaxs kafilligi asosida

Buxoro shahridagi Shahriston maydonida “Yangi O‘zbekistonni yoshlar quradi” shiori ostidagi gala-konsert minglab yoshlarni bir joyga jamlab, ko‘tarinki ruh va bayramona kayfiyatda o‘tdi.

Kun davomida tashkil etilgan tashabbuslar marafoni yoshlarning bilim va salohiyatini namoyon etish, innovatsion g‘oya va loyihalarni ilgari surish uchun muhim maydon bo‘ldi. Turli tanlov va ko‘rgazmalar, interaktiv loyihalarda faol qatnashgan yoshlar gala-konsertda yana bir bor jam bo‘lishdi. Marafon va festivallarda 115 mingga yaqin yoshlar va hamyurtlar ishtirok etdi.

Tadbirida so‘zga chiqqan viloyat hokimi Botir Zaripov hamda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa’dullayev mamlakat taraqqiyotida yoshlarning o‘rni tobora ortib borayotganini ta’kidlab, ularni Yangi O‘zbekistonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etishdi. Shuningdek, bir guruh

KUTILMAGAN HAYRATLI

buxorolik faol va iqtidorli yoshlar munosib taqdirlandi.

Tadbir yakunida estrada xonandalari ishtirokidagi konsert dasturi tomoshabinlarga bayramona kayfiyat ulashib, yoshlar birdamligi va tashabbuskorligini yanada mustahkamladi.

UCHRASHUVLAR, DAQIQALAR

115 ming yoshni birlashtirgan
ULKAN FESTIVAL



YOSHILAR ISHLARI YOSHILAR VENTURES YOSHILAR KOMPANIYASI

ONLESS

\$25.000

INVESTITSIYA BERILDI

Videolavhani QR-kod orqali ko‘ring.

Videolavhani QR-kod orqali ko‘ring.

“Universal” sport majmuasida “Shijoat va g‘ayrat” harbiy-sport musobaqasining viloyat bosqichi g‘oliblarini taqdirlash hamda yoshlar o‘rtasida futbol, mini-futbol va qizlar futboli bo‘yicha Davlat xavfsizlik xizmati kubogining viloyat bosqichiga qur‘a tashlash marosimi bo‘lib o‘tdi.



“SHIJOAT VA G‘AYRAT”



Tadbirida ishtirok etgan viloyat hokimi mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim olishi, kasb egallashi va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganini ta’kidladi. Shuningdek, O‘zbekiston milliy terma jamoasining jahon chempionatiga yo‘llanma olgani tarixiy yutuq ekanini qayd etib, sportchilarimizga omad tiladi. “Shijoat va g‘ayrat” musobaqasining

viloyat bosqichi g‘oliblari hamda turli yo‘nalishlarda faollik ko‘rsatgan yoshlar munosib taqdirlandi. Shu bilan birga, DXX kubogining viloyat bosqichi musobaqalarning keyingi bahslariga ham start berildi.

Mazkur musobaqalar yoshlarda vatanparvarlik, jasorat va intizom fazilatlarini mustahkamlash, iqtidorli sportchilarni kashf etish hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etishga xizmat qilmoqda.



Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti
rektori

Bugungi kunda oliygochimizda talabalar 81 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 52 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha tahsil olishmoqda. Universitet tarkibida 8 ta fakultet, 34 ta kafedra hamda zamonaviy o'quv va ilmiy infratuzilma mavjud. Talabalarning 122 nafari xorijiy amaliyotlarda, 56 nafari esa akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etgan.

"Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasi doirasida universitet "Eng faol oliy ta'lim tashkiloti" nominatsiyasi bo'yicha respublikada e'tirof etilib, 25 million so'm mukofotga sazovor bo'ldi. Universitet huzuridagi "RobotsAndMe" markazida so'nggi yetti yil davomida 1000 dan ortiq yosh robototexnika va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha tahsil oldi.

Sport sohasida ham universitet yutuqlari e'tiborga

Ming yillik ilmiy an'analar davomchisi bo'lgan Buxoro davlat universiteti bugun mamlakatimizda ham, xalqaro miqyosda ham o'z o'rniga ega yirik ta'lim va ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritmoqda.

ONA YURT SIZNI QOLLAYDI!



Videolavhani
QR-kod orqali ko'ring.

loyiq. Iordaniya poytaxti Amman shahrida bo'lib o'tgan ELO Xalqaro ingliz tili olimpiadasida talabalarimiz 58 ta oliy ta'lim muassasasi orasida SUPER KUBOK sohibi bo'lishdi. Bundan tashqari, xalqaro musobaqalarda 67 ta, Osiyo chempionatlarida 35 ta va respublika musobaqalarida

217 ta medal qo'lga kiritilgan. Voleybol jamoalari O'zbekiston chempioni bo'ldi, futbol jamoasi esa tarixda ilk bor Pro-liga yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Bugun Buxoro davlat universiteti yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yimoqda. Oliygoch nafaqat ta'lim muassasasi, balki bilim,

innovatsiya va taraqqiyot markazidir.

Mustaqil yurt yoshlari!

"Yoshlar kuni" bilan tabriklaymiz! Siz uchun yaratilgan imkoniyatlar eng katta yutug'ingizdir. Sizni ona yurt qo'llaydi! Ilm o'rganing, bilim va mahoratingizni oshiring!



Videolavhani
QR-kod orqali ko'ring.

ESKI SHAHARDAGI 13 YOSHLI TADBIRKOR

Sayyohlar sevgan tabiiy sharbatlar brendi

Yosh qahramonimiz Mahmudjon Saidovni ko'rib, qoyil qolasiz. U 13 yoshda bo'lishiga qaramay, chet tillarini o'rganib, tadbirkorlik orqali o'z daromadini topmoqda.

Tengdoshlari bo'sh vaqtini o'yin va ko'ngilochar mashg'ulotlarga sarflayotgan bir paytda, Mahmudjon o'zini biznes sohasida sinab ko'rishga qaror qildi. Bugun u Eski shahar hududida tabiiy mevalardan tayyorlangan sharbatlarni sotib, mahalliy aholi va sayyohlar e'tiborini qozonmoqda.

U "Freshello" brendi ostida tarvuz, apelsin va o'rikdan tayyorlangan tabiiy sharbatlarni taklif etadi. Kuniga o'rtacha 30-40 ta mahsulot sotadi. Yosh tadbirkorning aytishicha, bu ish, nafaqat, daromad, balki, yangi bilim va tajriba manbai hamdir.

Mahmudjonning tadbirkorlikka qiziqishi onasining tashabbusi bilan boshlangan. U farzandining telefon va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari qiziqib qolganini

ko'rib, uni foydali mashg'ulotga yo'naltirgan. Natijada, uch oy ichida Mahmudjon 600 dollarga yaqin daromad topishga muvaffaq bo'ldi.

Eng e'tiborlisi, u xorijlik sayyohlar bilan erkin muloqot qilib, chet tillarida suhbatlashadi. Bu esa uning xorijiy tilni o'rganish bo'yicha bilimini oshirish bilan birga, turli mamlakatlar va madaniyatlar haqida ham tasavvurini kengaytirmoqda.

Kelajakda Mahmudjon o'z brendini yanada rivojlantirib, mahsulotlarini boshqa hududlarda ham sotishni rejalashtirmoqda.

Bu hikoya yana bir haqiqatni isbotlaydi: muvaffaqiyat uchun yosh emas, maqsad, mehnatsevarlik va o'z kuchiga ishonch muhim.

YOSHLAR YUTUG'I —

Aziz va qadrlı yoshlar!

Bugun yurtimiz taraqqiyotida yoshlarning o'rnı tobora mustahkamlanib, sizlar Vatanimiz kelajagini belgilaydigan bilimli, tashabbuskor va vatanparvar avlod sifatida yuksak ishonchga sazovor bo'lib kelmoqdasizlar.

Buxoro davlat Pedagogika institutida yoshlarni har tomonlama qo'llab-



Bahodir MA'MUROV,
Buxoro davlat Pedagogika
institutı rektori



quvvatlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda iqtidorlarini ro'yobga chiqarish maqsadida keng imkoniyatlar yaratilmoqda. 2025/2026-o'quv yili davomida 1000 dan ortiq

ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari, 500 dan ziyod tanlov va musobaqalar hamda yuzlab uchrashuvlar tashkil etilib, yoshlarning faol ishtiroki ta'minlandi.

Bu imkoniyatlar o'z samarasini berib, talabalarimiz respublika va xalqaro miqyosda munosib natijalarga erishmoqda. Jumladan, "Yosh kitobxon" va "Ulug'bek vorislari" respublika tanlovlarida qo'lga kiritilgan yuqori o'rinlar, shuningdek, xalqaro va Osiyo sport musobaqalarida qo'lga kiritilgan ko'plab yutuqlar

institutimiz yoshlarining bilim va salohiyatini yaqqol namoyon etdi.

Aziz talabalar!
Ustingizda ishlashdan va yangi yutuqlarni zabt etishdan aslo to'xtamang. Har bir muvaffaqiyatingiz institutimiz va mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shilgan munosib hissa bo'lib xizmat qilsin. **Yoshlar kuni barchangizga muborak bo'lsin!**

Buxoro davlat universiteti talabasi Anvar Anvarov navbatdagi xalqaro maydonda O'zbekiston sharafini munosib himoya qildi.

**BUXOROLIK
TALABA
XALQARO
MAYDONDADA**

SPORT



Xitoyning Shanxay shahrida o'tgan, yengil atletika olamining eng nufuzli musobaqalardan biri sanalgan "Brilliant liga"da ham yurtimiz uzunlikka sakrash bahslarida 8,01 metr natija qayd etib, bronza medali sohibi bo'ldi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslarda italiyalik Mattia Furlani 8,43 metr bilan g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, bolgariyalik Bojidar Saraboyukov 8,07 metr bilan ikkinchi o'rinni egalladi.

Anvarning qayd etgan natijasi yillar davomidagi mehnat,


mashaqqat va qat'iyatning samarasidir. Uning xalqaro arenalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlari sportda yuksak salohiyatga ega ekanini namoyon etmoqda.

Eng muhimi, har bir musobaqada baland ko'tarilayotgan O'zbekiston bayrog'i ortida ana shunday jasoratli va intilishdan to'xtamaydigan yoshlar turibdi.

Anvar Anvarovning bu muvaffaqiyati ko'plab yoshlar uchun yangi marralar sari ilhom va ishonch bag'ishlashi shubhasiz.

↙	Davlat, boylik	↙	Meva nomi	↙	Davlat poytaxti Kingston	Nazar, qarash	↗	↗	↗	↗	↗	↗	↗	Elektr energiya	↘	
	..boksing (Sport tun)	↗				↘	Tilla, kumush	Mehnat-kash hashorat		↘	↘	↘	↘	«... va Majnun» (doston)	Italiya poytaxti	
↙			Fazo		Uzoqni ko'zla, yaqindan...	→	↘			↘	↘	↘	Nyu-... (shahar, AQSH)	→	↘	
	Tuz (shevada)	Rangli metall	Hindlar ta'limot	→				Shakldosh so'zlar		↗				Qizlar ismi	«Qora qit'a»	
↙		↘			To'rt tomoni suvi yer	→		↘		↘			Hangu mang, hayron	↘	↘	
DVD Pleyer «kasseta»si	Mo'tadil		Yuk ko'tarish qurilmasi		Quyma oltin		Qurilish ashyosi	→				↘	↘	...teshik	Ikki qorinli musiqqa asbobi	
↘	↘	↘	↘	Qiyshiq kvadrat	↘	Qahva (sinonim)	→					↘	↘	Misr firavni	↘	
														Kimyoviy element		
Peru poytaxti		ushla ol!	↗				↘	Tana a'zosi		yo'ning yuzi yo'q	→				...Riyod (shahar)	
↘	↘	↘		Kuzgi mevali daraxt nomi	→										↘	
Lyustra (o'zbekcha)	→							Kalaka mazax	→							

O'tkir yuqumli ichak kasalliklari yoz mavsumida keng tarqaladigan xastaliklardan biri bo'lib, **ayniqsa, bolalar uchun xavfli hisoblanadi**. Kasallik iflos qo'llar, yaxshi yuvilmagan meva-sabzavotlar, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari va qaynatilmagan suv orqali yuqadi. Uning asosiy belgilari **ich ketishi, ko'ngil aynishi, qusish, qorin og'rihi, isitma va holsizlikdan iborat**.



TOZALIK va EHTIYOTKORLIK — KAFOLATI SOG'LOM HAYOT

Kasallik kelib chiqishining oldini olish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish lozim. Ovqatlanishdan oldin va hojatxonadan keyin qo'llarni sovunlab yuvish, meva-

sabzavotlarni yaxshilab tozalash hamda faqat xavfsiz va qaynatilgan suv iste'mol qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ochiqda uzoq qolgan yoki yaxshi saqlanmagan oziq-

ovqatlarni iste'mol qilmaslik, sovutgichdagi mahsulotlarni o'z vaqtida yangilab turish va bolalarni ozodalikka o'rgatish zarur. Oddiy profilaktika choralariga rioya qilish orqali o'tkir yuqumli ichak kasalliklari

va boshqa ko'plab yuqumli xastaliklarning oldini olish mumkin.

Nozima Rahmatova,
Sanepidqo'mita Buxoro viloyati vrach epidemiologi.

KATTA ORZULAR KICHIK QADAMLARDAN BOSHLANADI

Ba'zan iste'dod yosh tanlamasligini isbotlaydigan insonlar bilan uchrashib qolasiz. Ular bilan suhbatlashganingizda, qalbingizda umid uyg'onadi, kelajakka ishonchingiz ortadi. Bizning bugungi suhbatdoshimiz ham ana shunday ajabto'vor bolalardan biri. U, atigi, besh yoshda. Ismi — Shodiyor Negmurodov.



Videolavhani
QR-kod orqali ko'ring.

Shodiyor 5 yoshda. Oddiy va samimiy bola. U Buxoro shahridagi "Mahlub yulduz" MTT tarbiyalanuvchisi. Suhbatimiz davom etgan sari uning yoshiga nisbatan qanchalik teran fikrlashi, erkin mulohaza yuritishi va bilimga chanqoqligi bizni hayratga soldi.

U muallimi Madina G'aybullayevadan ingliz va rus tillarida so'zlashni o'rganmoqda. E'tiborli jihati shundaki, Shodiyor buni qandaydir katta yutuq, deb emas, balki kundalik hayotining oddiy bir qismi sifatida qabul qiladi.

— Katta bo'lsang, kim bo'lasan? — deb so'radik undan.

Shodiyor biroq o'ylandi. So'ng ko'zlaridagi ishonch bilan o'z orzularini bayon qila boshladi. Uning har bir javobida bolalarga xos beg'uborlik bilan birga katta maqsadlar sari intilish ruhi ham mujassam. Go'yoki, u o'z kelajagini allaqachon tasavvur qilib bo'lganday.

Suhbatimizga qo'shilgan onasi esa o'g'lining tillarga bo'lgan qiziqishi juda erta boshlanganini bildirdi.

— U har kuni yangi so'z o'rganishga harakat qiladi. Kitoblar o'qiydi, turli ta'limiy videolarni tomosha qiladi. Dunyo haqida ko'proq bilishni istaydi, - deydi onasi faxr bilan.

Albatta, har bir yosh iste'dod ortida mehribon va fidoyi ota-ona turadi. Shodiyorning muvaffaqiyatida ham oilasining hissasi beqiyos. Ularning mehri, e'tibori va qo'llab-quvvatlashi kichkina iste'dod sohibining intilishlariga qanot bag'ishlamoqda. Shodiyor esa bu ishonchni har kuni yangi natijalari bilan oqlashga intiladi.

Uning ingliz tili olimpiadalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari ham bejiz emas. Har bir tanlov, har bir g'alaba uning uchun hayot yo'lidagi yangi qadam, yangi marra hisoblanadi.

Shodiyor bilan xayrlashar ekanmiz, bir fikr xayolimizdan o'tdi: katta orzular uchun yoshning ahamiyati yo'q. Muhimi, qalbdagi ishonch, bilimga bo'lgan chanqoqlik va insonni qo'llab-quvvatlaydigan muhitning mavjudligidir.

Besh yoshli Shodiyorning ko'zlarida porlab turgan ishonch va qiziqish uning oldida hali ulkan zafarlar, yangi kashfiyotlar va yorug' manzillar turganidan darak beradi. Balki, bugun biz suhbatlashgan oddiygina bolakay ertangi kunning yirik olimlaridan, diplomatlaridan yoki yurtimiz sharafini dunyoga tanitadigan insonlardan biri bo'lar.

Chunki, katta orzular, aynan, shunday — kichik qadamlardan boshlanadi.

Dilnavoz To'xtayeva
suhbatlashdi.

“Ibrat farzandlari”

460
MING
DOLLARLIKVideolavhani
QR-kod orqali ko'ring.Videolavhani
QR-kod orqali ko'ring.

MUVAFFAQIYAT SIRLARI

G'ijduvonda til o'rganish yangi bosqichda

“Ibrat farzandlari” loyihasi hamda “Ibrat Academy” ilovasi yoshlar uchun bepul va zamonaviy ta'lim imkoniyatini yaratib bermoqda.

G'ijduvon tumanida 34 ming 400 nafar foydalanuvchi platformaga jalb qilingan. Shundan 33 ming 570 nafari yoshlardir. 8 ming 397 nafar yosh turli darajadagi sertifikatlarni qo'lga kiritdi. Elnur Faxriddinov “Ibrat farzandlari” Respublika ochiq fan olimpiadasida ingliz tili bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Nilufar Rustamova 200 dan ortiq o'quvchilarga dars berib, AQShning nufuzli universitetidan 460 000 dollarlik grant yutib oldi.

9-sinf o'quvchisi Charosxon Azamova 3–8-sinf o'quvchilariga ingliz va rus tillaridan dars bermoqda, uning shogirdlari soni 35 nafardan oshgan. 7-sinf o'quvchisi Kamola Soliyeva esa 3–6-sinflarga ingliz tilini o'rgatib, 40 nafar o'quvchini qamrab olgan. Ruxshona Nizomova ham kichik yoshdagilarga til o'rgatish bilan shug'ullanmoqda. Shuningdek, aka-uka Jasurbek va Jo'rabek Vohidovlarning tashabbusi bilan 12-maktab va mahalla respublika miqyosida yetakchi o'rinlarni

egallab, maktabga 16 ta planshet sovg'a qilindi.

Umuman olganda, “Ibrat farzandlari” loyihasi til o'rgatish, tashabbuskor, bilimli yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. G'ijduvon tajribasi ushbu tashabbusning amaliy natijasi sifatida kelajak uchun mustahkam zamin yaratayotganini ko'rsatadi.

Xurshid To'xtaev,
“Ibrat sardorlari” loyihasi rahbari.

MUASSIS :
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGINING BUXORO
VILOYATI YOSHLAR ISHLARI
BOSHQARMASI

Bosh muharrir :
Laylo HAYITOVA

Gazeta Buxoro viloyati Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2017 yil 15 dekabrda 05-081 tartib raqami bilan ro'yxatga olingan.

BOSH HAMKOR:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Buxoro viloyati Kengashi

TAHRIR HAYATI:
Shavkat Rahmonov
Obidjon Hamidov
Shuhrat Jumayev
Sadoqat Siddiqova
Bahodir Mahmurov
Jamol Nosirov
Dilshod Yo'ldoshev
Mirshod Ochilov

TAHRIRIYAT MANZILI:
Buxoro shahri, Alisher Navoiy
ko'chasi, 20-uy.

TAHRIRIYAT HISOB-RAQAMI:
20210000404114165001 “Agrobank”
Buxoro shahar filiali, MFO: 00089, OKONX:
87100, STIR: 203590296
Nashr ko'rsatkichi: 3051

ISSN 2181-6557



**SAHIFALOVCHI -
DIZAYNER:**
Xurshid Abdullayev

Gazeta “Photo Express” XICH ofset
usulida 2217 nusxada chop etildi.

Bosmaxona manzili:
Qarshi shahri, Mustaqillik
shoh ko'chasi, 22-uy
Navbatchi muharrir: Zulfizar Mavlonova
Vizual muharrir: Dilnavoz To'xtayeva
Tasvirchi: Husan Hakimov

Hajmi 2 bosma taboq. Qog'oz bichimi A-4. -buyurtma.
Topshirildi — 10:00. Chop etish vaqti: 11:00
Bahosi kelishilgan narxda 25.06.2026 yil

www.buxoro-yoshlari.uz sayti orqali biz bilan birga buling.